

EKOLOGIK MULOQATDA AXLOQIY QARASHLARNING O'RNINI

Nuraliyev Elmurod Abdurayemovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha Dekan o'rinbosari

elmurodnuraliev91@gmail.com

Annotatsiya Maqolada, ekologik axloqiy munosabatlar haqidagi ilmiy-nazariy fikrlar o'zaro solishtirilib qiyosiy tahlil qilingan. Tabiat-jamiat-inson munosabatlarida ekologik ahloqiy qarashlarning namoyon bo'lishi, tabiatga nisbatan yangicha yondashuvning tarixiy asoslari, rivojlanish jarayonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik globallashuv, ekologik axloq, ezgulik, yovuzlik, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik bilim, ekologik norma, ekologik muhit, ekologik madaniyat.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti tarixining turli bosqichlarida inson va tabiat munosabatlariga turlicha uslubiy yondashuvlar, muqobil ilmiy qarashlar tizimi shakllangan. Bu qarashlardagi muqobilchilik va tarixiy davrga xos tahlil xususiyatlarini: bir tomondan, ishlab chiqarish kuchlari, ayniqsa inson intellektual potentsiali natijasi bo'lgan fan-texnika, texnologiya rivojlanishi bilan "tabiat-jamiat-inson" munosabatlarning murakkablashuvi; ikkinchi tomondan, umuman jamiyat ijtimoiy ong tizimidagi, xususan, ekologik ongning kundalik va nazariy darajalari, paradigmalari o'zgarib turish xususiyatlaridan qidirish kerak. Zero, har qanday tarixiy davrda ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini, rivojlanish darajasini baholaydigan mezonlar tarkibida ekologik axloq doimo ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili o'zbek olimlari F.Sulaymonova, U.SH.Otaboyev, U.H.Qoraboyev, I.M.Jabborov va

boshqalar tomonidan ham asoslab berilgan. F.Sulaymonova o'z tadqiqotida Zardushtiylikning boshqa xalqlar, xususan, qadimgi Yunoniston madaniyati va falsafiy fikrlari taraqqiyotiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatganini, ular o'rtasidagi umumiylikni aniqlagan. Ayni paytda olimlar bu borada ma'lum farqlar ham mavjudligini ko'rsatishganliklarini ham ta'kidlash joiz. Bu fikrning tasdig'ini, masalan, Sh.Otaboyevning: "Zardo'sht ta'limotining insoniyat taraqqiyotidagi muhim jihatlaridan biri shuki, agar masihiylik dinida "yovuzlikka qarshilik ko'rsatmaslik" g'oyasi targ'ib qilingan bo'lsa, zardushtiylik dini yovuz kuchlar bilan murosa qilishni emas, balki yovuzlikka qarshi nafrat bilan bor kuchini ishga solib, keskin kurashmoqni buyuradi" [1;78], degan fikrida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologik munosabatlarda axloqiy qarashlarning ustuvrlashuvini aniqlashtirishda tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Mutafakkirlarning ekologik axloq haqidagi qarashlari o'zaro solishtirilib, qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Insonning tabiatga ma'naviy-axloqiy munosabatlarini badiiy-estetik ifodalashning yorqin namunasi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida alohida o'rin tutadi. Kezi kelganda, uning ijodidagi ekologik qarashlar maxsus tadqiqotlar obyekti va predmeti bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Zero, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir". Mamlakatimizning hozirgi rahbari SH Mirziyoyev ta'rifiga ko'ra esa, "Emas oson bu maydon ichra turmoq" deganda: "Alloma bobomiz hazrat Alisher Navoiy o'z zamonasining nidosi va da'vatini ifoda etgan"².

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari «Xamsa», «Mahbub-ul qulub», «Zub-dat ut-tavorix», «Saddiy Iskandariy» va boshqa qator asarlaridagi g'oyalar tabiatga munosabatning axloqiy normalari va ma'naviy mezonlarini yuksak emotsional-ruhiy badiiy obrazlarda ifodalashda tengi yo'qdir.

Alisher Navoiyning ekologik axloqiy qarashlarida insonning tabiatga

nisbatan ezguligi ham, yovuzligi ham, uning ijtimoiy mohiyatidan qidiriladi va gumanizmning yangi qirradi namoyon bo'ladi. Zero, gumanizm insonning faqatgina o'ziga nisbatan ezgulik va yaxshilikning ravo ko'rilishi emas, balki u yashayotgan tabiiy va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishni ham qamrab oladi. Shunday qilib, uning ta'limotida tasavvuf falsafasining yangi mazmuni yaqqol namoyon bo'ladi. "Tariqat xonaqosida o'tirmagan, ya'ni rasman sufiy bo'lmagan Alisher Navoiy mazkur ta'limotni maslak, mafkuraviy e'tiqod sifatida qabul qilib, o'zining insonshunoslik, haqparastlik va adolatparastlik g'oyalariga bo'ysundirgan edi" [2;178], deb yozadi bu xususda taniqli olim N.Komilov.

Har qanday tarixiy davrning ekologik ma'naviy-axloqiy merosini o'rganish uning fan, texnika, texnologiya sohalarining rivojlanish darajalarini baholash mezonini bo'lishi mumkin. Chunki, jamiyatning intellektual salohiyati "Yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni shakllantirish zarurati muhim masalaga aylanishi tabiiydir" [3;266].

XVI-XIX asrlarda yashab ijod qilgan allomalarning ekologik axloq sohasidagi ilmiy meroslarini o'rganish, turli tarixiy davrlar o'rtasida ma'naviy madaniyatdagi vorislik munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu ta'limotlarning eng muhim ahamiyati, ekologik tanglik sabablarini va uning oqibatlarini jamiyatdagi ma'rifatsizlik, ma'naviy-axloqiy qashshoqlik bilan bog'lab ko'rsatilishidir.

Darhaqiqat, Movarounnahrda shakllangan etikologik ilmiy ta'limotlar, hech shubhasiz, dunyo ma'naviy-axloqiy merosining tarkibiy qismi bo'lib, jahonda ekologik axloq rivojlanishining muhim nazariy-metodologik asosi bo'lgan. Bu ta'limotlar ekologik muammolar globallashtirib, keskinlashib ketayotgan hozirgi davrda tarixning obyektiv rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, uning taraqqiyotini belgilaydigan axloqiy omillarning rolini ko'rsatib berishi bilan o'z dolzarbligini, ahamiyatini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, mazkur ta'limotlarga "tabiat-jamiyat" munosabatlarini boshqarish haqidagi ma'naviy-axloqiy determinizmning tizimlashgan shakli sifatida qarash mumkin.

Umuman hozirga kelib, “tabiat-jamiat-inson” tizimi munosabatlarini boshqarishda ekologik axloq funksiyasining ustuvorlashuvi haqida muqobil qarashlar shakllangan, ularni shartli ravishda optimistik, pessimistik va skeptik yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Masalan, Rossiyalik akademik A.A.Babayev “Inson genomi”: hozir va kelajakning axloqiy-huquqiy muammolari” nomli maqolasida bu qarashlarni industrial rivojlangan mamlakatlar misolida tahlil qilib, inson genini o‘zgartirishning axloqiy masalalarini shaxs huquqi va rasmiy huquq o‘rtasidagi munosabatlarni axloqiy normalar bilan regulyatsiya qilishdan boshqa muqobil yo‘l yo‘q, degan umumiy xulosaga keladi [4;5-13]. Bu o‘rinda nemis olimi Gans Yonasning “Inson faoliyatining o‘zgarish xarakteri” maqolasida A.A.Babayevning mazkur fikriga hamohanglikni ko‘ramiz [5;5-18].

Bugungi kunda insonning tabiatga munosabatida ikki jihat ko‘zga tashlanmoqda, ya’ni: birinchisi – tabiatni muhofaza qilishning axloqiylashishi (insonparvarlashishi); ikkinchisi - ekologik axloqiy normalarning siyosiylashishi (huquqiy qonun maqomiga ega bo‘lishi) ustuvorlashmoqda. “Hozirgi davrda planetamizdagi siyosiy vaziyat keskinlashib ketishi bilan ekologlarning umumiy qarashlarida siyosatlashish tendensiyasi namoyon bo‘lmoqda” [6;19], - deb yozadi D.Rasilov. Bunday sharoitda ekologik axloqiy normalarning “tabiat-jamiat-inson” munosabatlariga, ekologik borliqning esa, axloqiy qadriyatlar shakllanishiga ta’sir uslublarini, vositalarini takomillashtirish imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda ekologiyaning barcha ijtimoiy-siyosiy munosabatlar xarakterini baholovchi muhim mezonga aylanishi bilan, ularning nazariy-metodologik asoslariga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, “tabiat-jamiat-inson” munosabatlarini boshqarishda axloqning rolini kompleks-sistemali o‘rganish mavzu doirasida tushuncha va kategoriyalar mazmunini konkretlashtirishni taqozo qiladi. Xususan, sharqona axloqiy manbalarni obyektiv, xolis o‘rganish, ularning umuminsoniy manfaatlarga mos kelishining nazariy-metodologik masalalariga alohida e’tibor berilishi kerak.

Darhaqiqat, hozirgi davr insoniyat hayotidagi barcha ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarda insonparvarlashuv jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

U.Saidov yozganidek: “Aslida, madaniyat inson faoliyatining ichki mazmunini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson faoliyatining asosiy ma’no-mazmuni o‘zini erkin ijod shaxs sifatida ro‘yobga chiqarish, zarrama-zarra to‘plab insoniylik dunyosini yaratish va shu asosda olamni ham insoniylashtirishdan iborat” [7;193-194]. Bu o‘rinda shuni aytish joizki, dastlabki davrlarda (XV asrlarda) asosan, insonlarning insonga bo‘lgan o‘ziga xos munosabatini, mohiyatan barcha insonlarning tengligini e’tirof etishga asoslangan insonparvarlik g‘oyalari endilikda yangi va dolzarb axloqiy mazmun kasb etmoqda. Uning hozirgi mazmuni g‘oyat kengayib, faqatgina insonlarga g‘amxo‘rlik emas, balki butun olamga, atrof-muhitga, barcha tirik va notirik jonzotlarga nisbatan ezgu ma’naviy-axloqiy munosabatlar ustuvorlashmoqda. “Hozirgi zamondagi ekologik dunyoqarashda insonparvarlik axloqining navbatdagi bosqichi namoyon bo‘lmoqda, - deydi bu masalani chuqur tadqiq qilar ekan professor N.N.Marfenin. Endilikda gap faqat zamondoshlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat haqida emas, balki shu bilan birga, kelgusi avlodlarning farovon yashashlari uchun g‘amxo‘rlik, biz bilan birga yashayotgan barcha tirik mavjudodlar uchun “umumiy uy” bo‘lgan biosferani saqlash haqida bormoqda... Tobora mustahkamlanib borayotgan insonparvarlikning global ekologik muammolarni hal qilishdagi roli ortib bormoqda. Endilikda ekologiya fan sifatidagi dastlabki chegaralaridan chiqib, “atrof-muhit muhofazasi”, aniqrog‘i ekomadaniyat maqomini olgan bo‘lsa, gumanizm ham g‘oyat jiddiy evolyutsion o‘zgarishlarga uchramoqda. Bugun dunyoning insonparvarlik evolyutsiyasiga, uning noosfera bosqichidagi rivojlanish jarayonlariga muvofiq yangicha tartiblar asosida yashashni o‘rganadigan vaqt keldi” [8;6].

Mustabid tizim sharoitida kishilar ongida tabiiy boyliklarga mavhum umumxalq mulki, tabiatni moddiy boyliklarning bitmas-tuganmas omborxonasi, degan stereotiplarning shakllantirilishi, sharqona ekologik ma’naviy merosni, tarixiy an’analarni mensimaslik kayfiyati tizim manfaatlariga mos edi. Bugungi kunga kelib ekologik muammolarning globallashib ketishi tabiiy atrof muhitni muhofaza qilishga doir milliy tarixiy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Qisqa vaqt ichida xalqimizning uzoq

tarixga ega bo'lgan ma'naviy-madaniy merosni tiklash, o'rganish borasidagi katta ishlar amalga oshirildi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, ekologik axloqiy normalarning vujudga kelishi obyektiv jarayon bo'lib, "tabiat-jamiat-inson" munosabatlarini boshqarish vazifalaridan kelib chiqadi, ya'ni konkret tarixiy ekologik vaziyat taqozosidir.

Ikkinchidan, "tabiat-jamiat-inson" tizimi munosabatlarini boshqarish zaruriyatiga doir muqobil ekologik axloqiy ta'limotlar umumiy axloq nazariyasining tarkibiy qismi hisoblanadi va jamiyat rivojlanish darajasiga mos keladi.

Uchinchidan, biosfera ekologik muvozanati, umuman tabiatni muhofaza qilish madaniyati taraqqiyotini, xususan ekologik ma'naviy-axloqiy qadriyat normalari faoliyati uchun obyektiv shart-sharoitlarni va subyektiv omillar tizimini taqozo qiladi.

To'rtinchidan, "tabiat-jamiat-inson" munosabatlari haqidagi tarixiy merosga vorislik munosabati, ularni ijodiy rivojlantirish va amalga oshirishning samarali usul-vositalariga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Отабоев Ш. Экология, дин ва саломатлик. –Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. –Б. 78.
2. Комилов Н. Тасаввуф. К.1. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. –Б. 178. (272 б.)
3. Мирзиёев Ш.Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Т.:Ўзбекистон, 2022. Б.266.
4. Бабаев А.А. “Теном человека”: некоторые этико-правовые проблемы настоящего и будущего. // Человек. № 2. 1995. –С. 5-13.
5. Ганс Йонас. Изменившийся характер человеческой деятельности. // Человек. № 3. 1999. –С. 5-18.
6. Расилов Д. Урбанизациялашган муҳитнинг экологик маданиятни ривожлантиришдаги роли. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация Автореферати. –Тошкент: 2000. –Б. 19.
7. Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. –Б. 193-194.
8. Марфенин Н.Н. Гуманизм и экология. Журнал “Экология и жизнь” (избранные статьи). Стр. 6. <http://www.ecolife.ru/jornal/echo/2000-5-1.shtml>
9. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
10. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
11. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
12. Xurshid, Abdullayev. "GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 19.1 (2025): 299-303.

13. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
14. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
15. Xurshid, Nomozov. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOiy MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41 (2025): 632-636.
16. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOiy FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
17. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.
18. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
19. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA-MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.
20. Nurillayevich, O. B. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1) (2022).

21. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje* 44 (2024): 235-242.
22. Omonov, B. N. "O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." *Философия и право* 28.2 (2024): 41-43.
23. Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 125-128.
24. Omonov, B. N. (2024). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 529-535.
25. Nurillayevich, O. B. (2022). ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1).
26. Омонов, Б. Н. (2024). Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения. *Gospodarka i Innowacje*, 44, 235-242.
27. Omonov, B. N. (2024). O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari. *Философия и право*, 28(2), 41-43.
28. Omonov, B. (2025). EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 125-128.
29. Nomozov, X. (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
30. O'G'Li, N. X. S. (2023). YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI. *Research Focus*, 2(6), 105-110.
31. Nomozov, X. (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje*, 22, 229-231.

32. Xurshid, A. (2025). GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO 'LLARI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 19(1), 299-303.
33. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, 1(2), 52-58.
34. Nomozov, X. (2024). JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
35. Xurshid, N. (2025). AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOIIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 41, 632-636.
36. Nomozov, X. (2025). OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIIY FUNKSIYASI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 1(64), 253-255.
37. Shavkat o'g'li, N. X. (2025). YOSHLARNING IJTIMOIIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI. *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari*, 5(2), 27-31.
38. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
39. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIIY TARKIBI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, 1(2), 48-51.